

**“QUTLUG‘ QON” ROMANI HAQIDA****Baratova Gulsevar**

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti  
Filologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti III kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20186213>

**Annotatsiya.** *Badiiy jihatdan yetuk asar hisoblangan – “Qutlug‘ qon” romani 1937-yillarda betakror adib Oybek tomonidan yozib boshlandi va 1940-yillarda chop etildi. Ushbu asarda o‘zbek xalqining o‘tmishdagi hayot haqiqati, og‘ir hayoti, ozodlik yo‘lida olib borilgan azob-u uqubatlari atroflicha va keng yoritiladi. Aynan shu yillarda bunday mavzularda yozish muallifga biroz qiyinchilik tug‘dirgan bo‘lsada, yozuvchi buning uddasidan mohirona chiqa oldi.*

**Kalit so‘zlar:** *Oybek, asar, roman, adib, ozodlik.*

Qator romanlari, ko‘plab qissalari va boshqa ma‘lum va mashhur asarlari bilan o‘zbek adabiyoti rivojiga sezilarli hissa qo‘shgan Oybek– yetuk prozaik edi. Uning asarlari bosh g‘oyasida millat ruhiyatini o‘ziga xos yo‘nalishda ochib berish yotadi. Prozaik asarlari orasida “Qutlug‘ qon” asari ham aynan ana shu g‘oyani ochib beruvchi va badiiy qiymati bilan ajralib turuvchi asardir. Oybekning o‘zi shunday xotirlaydi: “Garchi men roman voqealari yuz bergan vaqtda hali kichik bola bo‘lsam ham xalq turmushini ko‘rdim.

Kambag‘allarning qorong‘u va dim uy- joylarini, boylarning ta‘rifi baland-baland devorlar bilan o‘ralgan hashamatli imoratlari, muzdek hovuzi bo‘lgan bog‘larni ko‘rdim. Men keyinchalik romanida tasvir etilgan turmush va ijtimoiy munosabatlarning ko‘pgina tomonlarini o‘sha vaqtdayoq chanqoqlik bilan kuzatgan va tushungan edim.[2]” Haqiqatdan ham roman voqealari yuz berayotgan pallada Oybek 10-11-yoshlar chamasi edi. Bundan anglashiladiki, o‘sha davr chirkinliklari va qiyinchiliklari yosh-u qarini, erkag-u ayolni chetlab o‘tgan emas.[3]

Tahlkali pallalarga qaramay asar mavzusi muallifni shu qadar o‘z og‘ushiga tortib ketti va bir qancha munozara va bahslarga ham sabab bo‘ldi. Jumladan, tanqidchilar va shu davr kishilari Oybekni asarga rus proleteriyati vakillari, inqilobchi kuchlarni kiritmaganlikda aybladi va adib romanga Petrov timsolini kiritishga majbur bo‘ldi.

Roman asosida 1916-yilda Toshkentda bo‘lib o‘tgan qo‘zg‘olon yotadi. Chirkin va qora kunlar, oq podsho istilosi, birinchi jahon urushida yengilayotgan podsho hukumatiga mardikor yollash va buni Turkiston xalqidan olishi xalqni og‘ir dardga giriftor qilgandek edi. Bunga qarama- qarshi yo‘lda harakat qilgan, haqiqat va ozodlik uchun kurashgan va shu yo‘lda jon bergan Yo‘lchi obrazi, mard, qalbi majruh o‘zbek xalqining yorqin timsolidir.

Asarda ma‘lum bo‘ladiki, adibning asosiy maqsadi faqat qo‘zg‘olon va uning sabablari emas, balki og‘ir ahvolda qolgan xalqning ichki kechinmalari, shaxsiy va ijtimoiy munosabatlari, qayg‘u hasratlarini, tabaqalashtirish siyosatini ochib berish edi. Shuning uchun ham asar markazida qo‘zg‘olonchilik emas, balki Yo‘lchi, Gulnor, Shokir ota, Mirzakarimboy, Yormat, Tantiboyvachcha singari kishilar taqdiri turadi.

Asarning bosh qahramoni Yo‘lchi– mardlik, halollik va olijanoblikda tengi yo‘q obraz. O‘z kuchi va irodasi bilan yuqori tabaqa egalarining buzuq niyatlariga qarshi tura olgan, ular ko‘rsatgan yo‘l- yo‘riqqa bosh urmay o‘zining poklik yo‘lida sobit qola oldi. Uning bu yo‘lga kirib kelishiga sabab hammani o‘zidek deb o‘ylagani edi va shuning uchun qarindosh-qondosh deb bilganlaridan mehr va muruvvat kutadi ammo natija na Yo‘lchi va na biz o‘qirmanlar kutgandek bo‘lmagandi...

Oybek bu romani orqali insonning mansabi va tabaqasi qanday bo'lishiga qaramay, to'g'ri va pok yo'lda yurishi uni yengilmaslik va mardlik cho'qqisiga yetkazishini ta'kidlaydi.

Shu sababli ham na Mirzakarim na Tntiboyvachcha va Nuriniso, nainki o'ris to'ralari ham Yo'lchini o'zi haq deb bilgan yo'ldan qaytara olmaydi. Chunki Yo'lchi o'zidagi tuyg'ularni barchasining martabasi va boyligidan ustun sanardi va ular ko'rsatgan yo'ldan yurishni pastkashlik sanaydi.

Indallosini aytganda, asarning qiymati obrazlarning hissiyoti reallikda haqiqatdan ham voqelanganida edi. Adolat uchun kurashgan odam Haq o'zi tarafda ekanligini angelaydi va shahdam yuradi. Huddi shunday Yo'lchi ham "qutlug' qoni" to'kilgunga qadar kurashdi. Zero "O'zini deb yashagan-o'lik, odam deb yashagan odam doim tirik".

### **Adabiyotlar**

1. Oybek. Qutlug' qon. Toshkent. Oltin Qalam nashriyoti. 2024.
2. Sharipova Mahfuza. O'zbek adabiyotida tarixiy romanlar. 2025.
3. Yoqubov H. Adibning mahorati. Toshkent, O'zadabiynashr, 1965.